V. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

Hududlar bo‘yicha 2023- yil 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, *birlikda*



2023- yil 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **22 114** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **1 438** tani tashkil etdi. Hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko‘pi Urganch shahrida **4 129** tani yoki jamiga nisbatan **18,7 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo‘lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni va ulushi



Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi

2023-yil yanvar – mart holatiga (jamiga nisbatan foizda)



Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo sohasida jami tashkil etilgan subyektlarning (41,6 foizi), sanoat tarmog‘ida (17,9 foiz), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (10,5 foiz), tashish va saqlash xizmatlarda (5,0 foiz) tashkil etilgan.

2023- yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*



2023- yil 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatan 11,3 birlikni tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2022- yil 1- aprel holatiga nisbatan 2,3 birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatining eng yuqori ko‘rsatkichi Urganch shahrida 27,5 birlik, Xiva shahrida 18,9 birlik, Yangibozor tumanida 11,8 birlik, Urganch tumanida 11,7 birlik, Yangiariq tumanida 10,6 birlikka yetdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(birlik, fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)

Shahar va tumanlar nomi	*2023- yil 1- aprel holatiga ro‘yxatga olingan*	*2023- yil yanvar - mart*	
		tashkil topdi	*tugatildi*
Viloyat bo‘yicha:	**28 734**	**1 438**	**286**
shaharlar:			
Urganch	5473	187	49
Xiva	2394	89	8
tumanlar:			
Bog‘ot	1878	109	30
Gurlan	1945	105	24
Qo‘shko‘pir	2302	126	15
Urganch	3236	131	35
Hazorasp	1702	110	13
Tuproqqal’a	689	39	3
Xonqa	2119	75	12
Xiva	2144	81	21
Shovot	1818	226	31
Yangiariq	1632	95	19
Yangibozor	1402	65	26

2023-yil yanvar-mart oylarida viloyatda ro‘yxatga olingan yangi kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari soni 1438 tani tashkil topgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich Urganch shahrida 187 ta, Xiva shahrida 89 ta, Bog‘ot tumanida 109 ta, Gurlan tumanida 105 ta, Qo‘shko‘pir tumanida 126 ta, Urganch tumanida 131 ta, Hazorasp tumanida 110 ta, Tuproqqal’a tumanida 39 ta, Xonqa tumanida 75 ta, Xiva tumanida 81 ta, Shovot tumanida 226 ta, Yangiariq tumanida 95 ta va Yangibozor tumanida 65 tani tashkil qildi.

2023- yil yanvar-mart oylarida yalpi hududiy mahsulotning 64,7 foizi (2022- yil yanvar-martda 65,8 foiz) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

2023- yilning yanvar- mart oylarida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan:

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 892,2 mlrd. so‘mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 18,4 foizi) tashkil qildi;

- 3268,7 mlrd. so‘mlik qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari mahsulotlari ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) bo‘lib, o‘sish sur’ati 105,5 foizni (qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari yalpi mahsulotining 97,7 foizi) tashkil qildi;

- 741,7 mlrd.so‘mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalarha jmining 44,5 foizi) o‘zlashtirildi va 2022- yilning yanvar- martiga nisbatan 61,9 foizni tashkil qildi;

- 845 ,3 mlrd.so‘mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 93,5 foizi) bajarildi va 2022- yilning yanvar- martiga nisbatan 99,5 foizni tashkil qildi;

- avtomobil transporti yuk aylanmasining 102,4 foizga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 70,4 foizi), yo‘lovchi aylanmasining esa 101,9 foizga (umumiy yo‘lovchi aylanmasining 96,3 foizi) tashkil qildi;

- chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 91,6 foizi yoki 1925,5 mlrd. so‘mi (o‘sish 101,1 foiz) va xizmatlar umumiy hajmining, mos ravishda 60,7 foizi yoki 1649,0 mlrd. so‘mi (o‘sish 102,6 foiz) shakllantirildi;

- 40,3 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 56,5 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi. 48,3 mln. AQSh dollari (umumiy import hajmining 36,5 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

Mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi

(2023- yilning yanvar- martida)

	Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so‘m	*Mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % hisobida*
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	3268,7	97,7
Sanoat	892,2	18,4
Qurilish	845 ,3	93,5
Chakana savdo	1925,5	91,6
Yuk tashish, *mln tn.*	5,6	92,5
Yo‘lovchi tashish, *mln.kishi*	90,3	94,7
Eksport, *mln. AQSh doll.*	40,3	56,5
Import, *mln. AQSh doll.*	48,3	36,5

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari, % da





2023- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **92,5 %** ni tashkil etdi. 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘sish sur’ati **102,4 %** ni tashkil qildi.



2023- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **70,4 %** ni tashkil etgan bo‘lib, 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘sish sur’ati **102,5 %** ni tashkil qildi.



2023- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **94,7 %** ni tashkil etib, 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘sish sur’ati **102,4 %** ni tashkil qildi.



2023- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transporti yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,3 %** ni tashkil etib, 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘sish sur’ati **101,9 %** ni tashkil qildi.